

## HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILINI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

U.Abdurasulova,

Is'hoqxon Ibrat nomidagi

Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitish jarayonida integrativ yondashuvning nazariy-metodologik va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Integrativ yondashuvning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiy tilini o‘qitishda fanlararo integratsiyani ta’minlash orqali ta’lim samaradorligini oshirishning pedagogik mexanizmlari va usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek adabiy tili, integrativ yondashuv, fanlararo aloqadorlik, ta’lim jarayoni, metodika, til kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, o‘qitish samaradorligi.

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретико-методологические и практические основы интегративного подхода в процессе обучения современному узбекскому литературному языку. Рассматривается роль интегративного подхода в современной системе образования, а также его дидактическое значение в развитии лингвистической компетенции студентов. Кроме того, высказываются суждения о педагогических механизмах и методах повышения эффективности обучения через обеспечение междисциплинарной интеграции при преподавании узбекского литературного языка.

**Ключевые слова:** узбекский литературный язык, интегративный подход, междисциплинарная связь, образовательный процесс, методика, языковая компетенция, педагогические технологии, эффективность обучения.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical, methodological and practical foundations of the integrative approach in the current process of teaching the Uzbek literary language. The role of the integrative approach in the modern education system and its didactic significance in developing students' linguistic competence are considered. The pedagogical mechanisms and methods of increasing educational effectiveness by ensuring interdisciplinary integration in teaching the Uzbek literary language are also discussed in the article.

**Keywords:** Uzbek literary language, integrative approach, interdisciplinary connection, educational process, methodology, language competence, pedagogical technologies, teaching effectiveness.

**Kirish.** Jahon hamjamiyatida kechayotgan globallashtirish jarayonlari, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi o‘zgarishlar, shuningdek, fan-texnika taraqqiyoti ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, xususan, integrativ yondashuvni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tezkor va asosli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda bilim va kompetensiyalarni kompleks tarzda egallashiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘qitishda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish muhim ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

**Adabiyotlar tahlili.** Integrativ yondashuv til o‘qitish jarayonini hayotdagi kommunikativ faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa tilni o‘rganish

jarayonining dolzarbligini oshirib, uning samaradorligini ta'minlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish jarayonida ham mazkur yondashuv talabalarning lingvistik bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi. Binobarin, til ko'nikmalarining integratsiyalashuvi kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot yuritish uchun muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Bu esa pedagogik jarayonda zamonaviy metodik yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi hamda hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, til o'qitish jarayonida kundalik muloqotga asoslangan va amaliy topshiriqlarni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan faoliyat turlarini qo'llash muhim metodik ahamiyatga ega. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda til birliklarini yaxlit tizim sifatida idrok etish ko'nikmasini shakllantiradi hamda ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

“Integratsiya” atamasi lotincha “integer” so‘zidan kelib chiqqan – butun va bir butunni yaratish jarayoni sifatida tushuniladi. Shuning uchun integratsiya ko‘proq hajmli qiymat sifatida nafaqat jarayon, balki ajralmas yaxlitlikni yaratish natijasi sifatida ham tushuniladi [1]. Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv fanlari mazmunini sintezlash, ya’ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz [2].

Integrativ yondashuv – bu ta'lim pedagogik integratsiya jarayoni va natijasi sifatida ko‘rib chiqiladigan tadqiqot pozitsiyasidir.

Olimlar pedagogikada integrativ yondashuvni turli yo‘llar bilan izohlaydilar. I.A.Zimnaya, E.V.Zemtsova integrativ yondashuvni “kamida bitta xarakteristikaning umumiyliigi bilan birlashtirilgan obyektlar, hodisalar, jarayonlar majmuasining yaxlit tasviri, natijada uning yangi sifati yaratiladi” deb ta’riflaydi; V.M.Lopatkinning biroz boshqacha pozitsiyasi, u integrativ yondashuv – “dunyo rasmining yaxlitligini ta’minlaydigan vosita; nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda insonning tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi” [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Integrativ yondashuvni samarali amalga oshirish ta'lim jarayonida turli pedagogik metodlarning o'zaro uyg'unlashgan va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilishini talab etadi. Mazkur yondashuv doirasida matn asosida o'qitish yetakchi metodlardan biri sifatida namoyon bo'lib, u talabalarda til birliklarini alohida-alohida emas, balki yaxlit kommunikativ tizim sifatida idrok etish ko'nikmasini shakllantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida fonetik, leksik, grammatik va uslubiy birliklarning o'zaro aloqadorligi ochib berilib, nazariy bilimlarning amaliy nutqiy faoliyat bilan integratsiyasi ta'minlanadi.

“Muammoli ta'lim” metodining qo'llanilishi esa talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish va muayyan lingvistik muammolarni hal etish jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Loyiha” metodi orqali talabalar o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq

etish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, "Klaster" metodi yordamida o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar aniqlanib, bilimlar strukturaviy jihatdan tartibga solinadi. "Aqliy hujum" metodi esa talabalarning erkin fikr bildirishiga, mavjud bilim va tasavvurlarini faollashtirishga hamda yangi g'oyalarni ilgari surishga imkon yaratadi. Fanlararo integratsiya elementlaridan foydalanish esa o'zbek adabiy tilini adabiyot, tarix, madaniyat kabi fanlar bilan uzviy bog'lash orqali o'rganilayotgan bilimlarning chuqurlashuviga va ularning real hayot bilan aloqadorligini anglashga xizmat qiladi.

**Tahlillar va natijalar.** Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida ta'lim jarayonini integratsiyalash, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash hamda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Mugla Universiteti (Turkiya), Indiana University (AQSh), Manchester va Oxford universitetlari (Buyuk Britaniya), Belfield Pedagogical University (Germaniya) kabi yetakchi ilmiy markazlar va ta'lim muassasalarida fanlarni integrativ o'qitish asosida milliy g'ururni metodik rivojlantirish, ta'limning sifatini va samaradorligini oshirish, shuningdek, uning uzviyligi va innovatsionligi ta'minlanmoqda[1]. Ushbu tajribalar hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda ham fanlararo integratsiyani kuchaytirish va ta'lim samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirish va yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar doirasida hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda integrativ yondashuvni samarali tatbiq etish, fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quv jarayonini interfaol shakllarda tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu esa talabalarning nafaqat til bilimlarini, balki integrallashgan kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv ta'lim mazmunida fanning mohiyati va asosiy xususiyatlarini yaxlit ko'rib chiqish, asosiy omillarni ta'kidlash, bir fan atrofida guruhlash, qolganlarining esa eng yuqori darajasini ochib berish, bu obyektning rivojlanishi va uning o'zaro aloqasi past darajada ichki va tashqi jihatlarining o'zaro aloqasi, umumiy va ajralmas obyektning umumiy holatdan boshqasiga o'tishida ifodalanadi [5]. Integrativ yondashuv til o'rganish jarayonini haqiqiy hayotdagi muloqot bilan uyg'unlashtiradi, bu esa tilni o'rgatishni yanada dolzarb va samarali qiladi [6].

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish,

faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jihatdan esa integratsiya:

didaktik tamoyil – o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy qoida;

shart-sharoit – ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar;

harakatga keltiruvchi kuch – ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil;

ta'lim rivojlanishi va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi [4].

Fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis hamda stilistika bo'limlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda o'qitish talabalarida lingvistik kompetensiyaning kompleks shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, matn asosida tashkil etilgan integrativ mashg'ulotlar orqali nazariy bilimlarning amaliy nutqiy faoliyat bilan uyg'unlashuvi ta'minlanadi, bu esa talabalarning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi, ularning bilish faolligi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari izchil rivojlanadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya elementlaridan foydalanish (adabiyot, tarix, madaniyat bilan bog'lash) o'quv materialining mazmunan boyishiga hamda uning hayotiy ahamiyatini anglashga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuvni samarali amalga oshirishda o'qituvchining metodik kompetensiyasi, darslarni puxta loyihalash, o'quv materiallarini integratsiyalash asosida tanlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Aks holda, integratsiya yuzaki xarakter kasb etib, kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Integratsiya asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarda til hodisalarini yaxlit va tizimli ravishda anglash, ularni o'zaro bog'liqlikda idrok etish imkonini yaratadi. Shuningdek, integrativ yondashuv talabalarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Nazariy bilimlarni amaliy nutqiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi. Integrativ yondashuvni samarali joriy etish esa o'qituvchining yuqori metodik tayyorgarligini, darslarni puxta rejalashtirishni va fanlararo bog'lanishlarni to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Shu bois, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishda ta'lim sifatini oshirish, talabalar bilimining mustahkamligi va amaliy ahamiyatini kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Kelgusida ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish va amaliyotga keng tatbiq etish dolzarb vazifalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Umarova Sh.M. Ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda milliy g'ururni rivojlantirish metodikasi (Ona tili va tarbiya fanlari 1-5 sinflar misolida). – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
2. Otajanov O.A. Ta'limda integrativ yondashuv: oldin va hozir // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/45828/46161>
3. Sodiqov B.B. Kreativlikka asoslangan kimyo ta'limida integrativ yondashuvning ahamiyati // <https://devos.uz/files/375.pdf>.
4. Otajanov O.A. Oliy ta'lim jarayonida integrativ yondashuv // Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 2024. – B.49-50.
5. Siddiqova S.G'. Ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvning falsafiy va psixologik jihatlari// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 3| SPECIAL ISSUE 4| 2024.
6. Торопова Е.А.Современные проблемы науки и образования. Современные проблемы науки и образования // Электронный научный журнал. – Тошкент, 2012. –No 6. –С.45-58.
7. Omonova M.Sh. Talabalarda xorijiy til kompetensiyasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi. – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.

